

TIL - MILLAT KO'ZGUSI

Aliyeva Dilbar

*“Alfraganus University” nodavlat ta’lim tashkiloti“
Xorijiy filologiya” kafedrası katta o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilining vujudga kelishi, undan foydalanilishi, Sobiq SSSR davrida o‘zbek xalqining o‘tkazgan kechinmalari, o‘zbek tilini davlat tili sifatida qabul qilinishi, xalqaro miqyosda o‘zbek tilining tan olinishi, hozirda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma’lumot beradi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, turkiy tillar, tilshunoslik, milliy ong, tafakkur, davlat tili, ona tili, millat, elat.*

*“Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurg‘on o‘yinayi hayoti til va adabiyotidir.
Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”*

(A. Avloniy)

O‘zbek tili – turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub tillardan; yangi uyg‘ur tili bilan birgalikda qarluq-xorazm guruhchasini tashkil etadi. O‘zbek tili asosan, O‘zbekistonda, shuningdek, Afg‘oniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Saudiya Arabiston, Xitoy, AQSH, Germaniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. O‘zbek tili qipchoq, o‘g‘uz, qarluq-chigil-uyg‘ur kabi 3 ta til birligi sifatida shakllanib, murakkab dialektal tarkibi bilan ajralib turadi¹.

O'zbek tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyoti, adabiyotlarda ta'kidlanganidek, uzoq tarixga ega². “Turkiy tilshunoslik” nomi ostida berilgan o'zbek tilshunosligi ilk davrlarda hind va keyinchalik, asosan, arab tilshunosligi ta'sirida shakllana boshlagan. Dastlabki davrlarda o'z tadqiqotlarini arab tili (va arab yozuvi)da yozgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariy, keyinroq Sakkokiy, Yoqut Hamaviy, Abu Hayyon al-Andalusiy, Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh Turkiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur hamda o'rta asrlar lug'atchiligiga katta hissa qo'shgan Aloyi binni Muhibiy, Toli Imoniy, Muhammad Rizo, Muhammad Ya'kub Chingiy, Mehdixon kabi qomusiy olimlar turkiy tilshunoslikning tamal toshini qo'ygan, deyish mumkin. Albatta, bu olimlarning ba'zi asarlari arab tilini o'rganishga bag'ishlangan bo'lishidan qat'i nazar, turkiy tilshunoslikning shakllanishiga ham turtki, ilmiy manba vazifasini o'tagan. Umuman, turkiy tilshunoslikning shakllanishi, manbalariga oid fikrlar xususida E.Fozilov,

¹ O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM/O‘ZBEK TILI DAVLAT TILI SIFATIDA-Qobilova S.S.

² O‘rinboev B., Qurbonov T. O‘zbek tilshunosligi tarixi // O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU, 2006. – B. 3; Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Қатортол-Камолот, 2000. – Б. 3–4.

I.Abdullaev, X.Jabborov, H.Hasanov va boshqa olimlarning alohida tadqiqotlarida ma'lum qaydlar mavjud³.

Ona tili – uni yaratgan va yaratib kelayotgan tilning o'tmishi, buguni va kelajagi. Til kishilar o'rtasidagi muloqot vositasidir, chunki ijtimoiy hayotda kishilar bir-biri bilan til orqali muloqot qiladi, fikr almashadi, fikr bildiradi.

Til har qanday xalqning tarixi va taqdiri, ta'lim va tarbiyasining asosidir. Til bo'lmasa, nutq ham bo'lmaydi. Ma'lumki, so'zsiz xalq hayoti ma'nosiz bo'ladi. Shuning uchun til va so'zning alohida o'rni bor. Shu munosabat bilan ona tilimiz haqida chuqur o'ylash har birimizning burchimizdir. Ona tilimizning mavqei yildan-yilga yuksalib, sha'ni ortib bormoqda. Til xalqning ruhidir. Til o'lsa, xalq yer yuzidan yo'qoladi. Insoniyat tarixida ko'plab sivilizatsiyalashgan mamlakatlarning yo'q bo'lib ketishi tilning yo'qolishi bilan boshlanganini fan isbotlaydi⁴.

Til madaniyatning tarkibiy qismi va uning vositasidir. U ruhimizning borlig'i, madaniyatimizning ko'rinishidir; u milliy mentallikning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Til inson oldida tafakkur sohasini ochgan mexanizmdir. Til madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi. Lekin boshqa tomondan tilning materiyasida insonning biologik tabiati namoyon bo'ladi. Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzlar vositasida yaratiladi. Har qanday til o'zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Madaniyat esa tilning mazmun jihatini aniqlaydi⁵.

Dunyoda uch mingga yaqin til mavjud, lekin barcha tillarga ham davlat tili degan sharafli maqom nasib etmagan. Aksariyat tillar imperiya davlatlarning hududida ma'lum millatlarga uy-ro'zg'or tili sifatida xizmat qiladi. Yer yuzida o'z suveren huquqiga ega bo'lgan (ikki yuz atrofida) nechta davlat bo'lsa, shunga yaqinroq davlat tili mavjud bo'lar ekan. E'tibor qiling! Milliy qomusimizning ma'lumotiga ko'ra, Yer yuzidagi uch ming tildan atigi 116 tasi davlat tili maqomiga ega. O'zbek tilining bu mo'tabar minbardan o'rin olishi, ya'ni davlat tili maqomiga ega bo'lishi - bu bir baxt, qolaversa, mo'jiza!⁶

Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Bu haqda gapirganda, mustaqillik arafasida o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida

³ Фозилов Э. Шарқнинг машҳур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971; Абдуллаев И. Абу Мансур Абдулмалик Ас-Саолибий. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992; Жабборов Х. Буюк тилшунослар. – Тошкент: Насаф, 2003; Ҳасанов Ҳ. Маҳмуд Кошғарий. – Тошкент: Уздавнашр, 1963

⁴ Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari, <http://www.amerikaovozi.com>, <http://taqvim.uz>

⁵ O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANILISHI fanidan o'quv uslubiy majmua; N.Saydirahimova, D.Lutfullayeva-Toshkent - 2021

⁶ DAVLAT TILIDA ISH YURITISH AMALIYOTI; Usmonov S.-O'quv qo'llanma-Toshkent-O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti-2008

qanday qizg'in, ba'zida keskin va murosasiz bahs va tortishuvlar bo'lib o'tgani beixtiyor yodimizga tushadi. O'shanda ayrim siyosiy guruhlar O'zbekiston sharoitiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan, bir-biriga butunlay zid va qarama-qarshi fikrlarni olg'a surgan, shuning hisobidan o'ziga obro' topish, odamlarni ortidan ergashtirishga uringan edi. Nega deganda, til bilan bog'liq muammolar orqali milliy tuyg'ularni ro'kach qilib, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanish mumkin. Mana shunday o'ta qaltis va murakkab vaziyatda agarki ozgina ehtirosiga berilsak, hushyorlikni yo'qotsak bormi, arzimagan uchqundan o't chiqib ketishi hech gap emasdi. Markazda va o'zimizda qulay bahona kutib, payt poylab turgan imperiyaparast kuchlarga aynan shu narsa kerak edi.

Sobiq SSSR davrida ona tilimiz – o'zbek tili hayotida, O'zbekistonda o'zbek tilining qo'llanish doirasi juda torayib ketdi, to'g'rirog'i, u taraqqiy etmay, turg'unlik davrini boshdan kechirdi. O'zbekistonda o'zbek tili o'gay bola bo'lib qoldi. Ona tilida ariza yozish, majlis olib borish, rasmiy idora vakillari bilan muomala qilish qariyb unitila boshlangan edi. Sevimli adibimiz Erkin Vohidov "Davlat tili haqida"gi qonun muhokamasi jarayonida matbuotda achchiq bo'lsa-da, quyidagilarni chin dildan, kuyunib ochiq-oydin aytdilar: "Hozirda (80-yillarning oxiri — ta'kid bizniki: S.U) vaziyat shundayki, O'zbekistonda o'zbek tilini bilmagan odam bemalol hayot kechirishi mumkin. Uni o'rganishga ehtiyoj yo'q. Lekin rus tilini bilmagan odamga hamma eshiklar berk. Nuroniy onaxon hokim tilni bilmagani uchun nafaqa masalasida ijrokom xodimi bilan muomala qilolmaydi. Uyiga o't tushgan o'zbek o't o'chiruvchiga mahallasi qayerdaligini tushuntirolmaydi, "Tez yordam"ga qo'ng'iroq qilib bolasining dardini anglatib gapirolmaydi"⁷. Ha, o'zbek tili dunyoning eng boy tillaridan biri bo'lsa-da, lekin totalitar tuzum davrida baxtsiz bir tilga aylanib ulgurgan edi. Bu holat millatimiz fidoyilarini, ziyoli ahlini, millatparvar xalqimizni qattiq tashvishga soldi⁸.

Og'ir-vazminlik bilan ish tutib, har tomonlama o'ylab, mulohaza qilib, barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlarining talablarini qondiradigan, eng muhimi, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to'g'ri yo'lni topishga erishdik.

Avvalo, respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili bo'yicha taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilindi. Komissiya a'zolari aholining turli ijtimoiy qatlamlari, siyosiy guruhlar, barcha millat va elat vakillari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni atroflicha o'rganib, respublika rahbariyati va keng jamoatchilikka doimiy axborot berib borar edi. Ana shunday ishchanlik ruhida Oliy Kengash sessiyasiga taqdim etiladigan loyihaning har bir moddasi bo'yicha har taraflama fikr almashuv, bahs va munozaralar bo'lib o'tdi. Nihoyat, 1989-yilning 19-oktabr kuni bu o'ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yildi. Va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi.

⁷ Воҳидов Э. Рухимиз эҳтиёжи // Саодат, 1989, 3-сон

⁸ DAVLAT TILIDA ISH YURITISH AMALIYOTI; Usmonov S.-O'quv qo'llanma-Toshkent-O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti-2008

Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqea edi.

Qabul qilingan qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo'li bilan himoya qilish, tili, dini va millatidan qat'i nazar, har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot, kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo'yilgan edi. Bu qonun o'sha paytda boshqa respublikalarda qabul qilingan tilga oid hujjatlardan o'zining demokratik mohiyati bilan ajralib turishini alohida ta'kidlash lozim.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog', gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi. O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir.

Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o'zbek tilining o'rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi. Shu borada o'zbek tilining kompyuter va Internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo'llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog'liq katta ekanini ko'rsatadi.

Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalami ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz⁹.

O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalari hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, 2020-yil 20-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-

⁹ Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari

sonli farmoni qabul qilindi¹⁰. Mazkur farmonga ilova sifatida hamda Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmoniga muvofiq “2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Konsepsiyada mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish, ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish; mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi muhim vaziyatarni bajarish belgilab qo‘yilgan.

2020-yil 20-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PF- 6084-sonli farmonida o‘zbek tilini o‘qitish qamrovini kengaytirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgani barchamiz uchun quvonarli voqea bo‘ldi. Chunki keyingi davrlarda maktabgacha va umumta’lim tizimida o‘zbek tiliga ajratilgan o‘quv soatlari hajmi kamaygan edi. 2025-yilga qadar davlat maktabgacha ta’lim tizimida amaldagi maktabgacha ta’lim muassasalarining hududlarini kengaytirish yoki yangi quriladigan muassasalar hisobiga o‘zbek tilli guruhlar qamrovini 72 foizga, 2030-yilgacha esa 80 foizga yetkazish, 2030-yilga qadar umumta’lim maktablarida o‘quv yillari uchun tayanch o‘quv rejalarida o‘zbek tili fanini o‘qitish ko‘lamini amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish, oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili kafedralari sonini 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilgacha esa 140 taga yetkazish bo‘yicha aniq raqamlarning berilganligi bu boradagi ishlar muayyan prognozlar, tahlillar va statistik ma’lumotlar asosida puxta ishlab chiqilganidan dalolat beradi. Farmonda o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshiruvchi 15 ta lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug‘atlar yaratish masalasi ham ko‘zda tutilgan. Ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning to‘ldirilgan yangi nashri (kirill va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida); “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”; “O‘zbek tili sinonimlari lug‘ati”; “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”; “O‘zbek tili frazeologizmlarining katta izohli lug‘ati”; “O‘zbek tili omonimlari lug‘ati”, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida “O‘zbekiston milliy qomusi” jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko‘paytirib borish ko‘zda tutilgan. Bu lug‘atlarning aksariyati avvaldan mavjud. O‘zbek tilida shu kunga qadar yaratilmagan lug‘atlarni tuzish va yaratish masalasiga ham ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Hozirda tizimli dastur asosida yangi avlod o‘quv lug‘atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish hamda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-5058351>

o'qitishning metodik ta'minoti bo'yicha elektron platforma yaratish uchun 500 million so'mlik loyihalarning e'lon qilingani ham tarixiy voqeadir. Ushbu loyihada umumta'lim maktablarining 5-11-sinflari uchun "O'zbek tilining omonimlari o'quv lug'ati", "O'zbek tilining paronimlari o'quv lug'ati", "O'zbek tilining morfem o'quv lug'ati" uslubiy qo'llanmalari va o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi avlod o'quv lug'atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish bo'yicha bajarilishi ko'zda tutilgan. Farmonda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi manfaatdor tashkilotlarni jalb qilgan holda 2021-yil 1-yanvardan boshlab markaziy telekanallarda "Tilga e'tibor", "Ona tilida so'zlashamiz", "Notiqlik mahorati", "Til – millat ko'zgusi", "Kitob bilim manbayi", "Bilimli yoshlar – kelajak bunyodkori" kabi turkum ko'rsatuv va radioeshittirishlarni tashkil qilib, muntazam ravishda efirga uzatib borilishini ta'minlash masalasi ham belgilab berilgan. Bizningcha, viloyatlardagi teleradiokompaniyalar ham shunday nomdagi turkum ko'rsatuvlarni tashkil qilishlari kerak. Farmonda davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini ta'minlash sohasida ham 2025-yilga qadar davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun 14 ta onlayn dastur ishlab chiqish, 2030-yilgacha esa ushbu ko'rsatkichni 25 taga yetkazish kabi tadbirlar ham belgilangan. So'nggi yillarda dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish, xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish masalasiga bugungi kunda katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish sohasida ham 2030-yilga qadar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini amaldagi 17 tadan 60 tagacha ko'paytirish, 2025-yilga qadar "O'zbek tilining do'stlari" klublari sonini 30 taga, 2030-yilgacha esa 40 taga yetkazish, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'zbek tilini o'rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish kabi masalalarning qo'yilishi davlat tiliga chinakam g'amxo'rlik namunasidir. Vazirlar Mahkamasi lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tishni ta'minlash maqsadida uch oy muddatda ishchi guruhini tashkil qilishi va "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritishi belgilandi. Yozuv masalasini ham hal qilishni tezlashtirish lozim bo'lgan o'ta jiddiy vazifalardan biridir. Farmonga muvofiq 2021-yil 1-apreldan boshlab o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish darajasi aniqlanadi hamda mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatlari joriy etiladi. Fikrimizcha, o'zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzi va obro'yini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha abituriyentlarga o'zbek tili fanidan 30 savoldan iborat to'liq fan blokini tashkil qilish lozim. Chunki dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida davlat tilidan yoki ona tilidan OTMga kirish testini olish

tajribasi mavjud. O'zbekistondagi OTMlardan o'zbek tili mutaxassislarini xorijdagi o'zbek tili o'qitiladigan OTMlarga tajriba almashish uchun xizmat safarlariga yuborishni tashkil qilish ham mazkur sohada faoliyat yuritayotgan ilmiy- pedagogik kadrlarning malakasi oshishiga va ta'lim tizimining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiluvchi omillardandir. Oliy ta'lim muassasalarining filologiya ta'lim yo'nalishlarida "Kompyuter lingvistikasi", "Amaliy filologiya" yo'nalishlarini tashkil qilish, Tashqi ishlar vazirligi, Fanlar akademiyasi bilan birgalikda xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish kabi tadbirlarning belgilab berilishi tilshunoslikning endi rivojlanib borayotgan yo'nalishlari taraqqiyotini ta'minlab beradi. O'zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida jamlagan elektron ko'rinishdagi o'zbek tili milliy korpusini yaratish choralari ko'rish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Milliy korpusning o'ziga xos ikki muhim xususiyati mavjud. Birinchidan, u me'yorlashtirilgan muayyan tarkibga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu korpus ma'lum tilda berilgan (turli badiiy janrlar: publitsistik, o'quv, ilmiy, ish yuritish, so'zlashuv, shevaviy kabi), ularning barchasi imkon darajasida ma'lum doiraga oid ma'lumotlarning proporsional matnlari hisoblanadigan og'zaki va yozma ko'rinishlarining barchasini o'z qamroviga oladi degani. Korpusning qoniqarli darajada bo'lishi uchun uning ko'lamiga e'tibor qaratish kerakligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak¹¹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasining 2020-yil 9-sentabrdagi 34-sonli xatiga muvofiq, o'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda uning davlat tili sifatida rolini oshirishga salbiy ta'sir etayotgan omillar, o'z yechimini kutayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi va Innovatsion rivojlanish vazirligi hamkorligida tashkil etilayotgan ilmiy loyihalar tanlovi e'lon qilingan. Masalan, o'zbek tilining milliy korpusini yaratish bo'yicha e'lon qilingan 600 million so'm qiymatidagi amaliy loyihaning ahamiyati beqiyosdir.

Loyiha amalga oshirilsa, o'zbek tilining jozibadorligi, so'z boyligi va xazinasini markazlashgan holda ko'rsatish, uning nutqiy imkoniyatlarini aniqlash, o'rganish maqsadida yagona platformaga jamlangan katta hajmli matnlar majmuini qidiruvga bo'ysundirilgan holda saqlaydigan electron resurs yaratiladi, o'zbek tilining istalgan so'zi haqida ma'lumot bera oladigan hamda sun'iy intellekt o'qiy oladigan formati, online rejimda (internet tizimida) ishlaydigan mahsulot - o'zbek tilining milliy til korpusi yaratiladi¹².

2020-yilning 23-sentabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida nutq so'zledi. Jahondagi eng nufuzli tashkilot minbaridan o'zbek tilida davlatimiz rahbarining nutqi yangrashi dunyodagi barcha o'zbeklar va boshqa turkiy xalqlar vakillarida cheksiz

¹¹ Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2019, 52-bet

¹² https://mininnovation.uz/uploads/mininno/tanlov/tur_31/Filologiya_31_tur.pdf

g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otdi. Chunki shu paytga qadar bunday ulug' minbarlarda o'zbek so'zlari yangramagan edi! Bu tarixiy voqeaning O'zbekistonimizning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni, obro'si yanada oshib borayotganining dalili desak, to'g'ri bo'ladi¹³.

Xulosa qilib aytganda, til- madaniyat vositasidir. Til bo'lmasa, nutq ham bo'lmaydi. Bizning davlat tilimiz – o'zbek tilidir. Tilimizni rivojlantirish salmoqli ishlar olib borilmoqda. Biz, yoshlar ona tilimizni har sohada tadbiq etish uchun o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Zero, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, globallashuv va axborot kommunikasiya texnologiyalari jadal rivoj topayotgan, mustaqil O'zbekiston ochiq va konstruktiv siyosati bilan mintaqamizdagi yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylanib borayotgan bir pallada o'zbek tili milliy g'urur, o'lmas bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyat, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuchdir¹⁴.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'rinboev B., Qurbonov T. O'zbek tilshunosligi tarixi // O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2006. – B. 3; Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Қатортол-Камолот, 2000. – Б. 3–4.

2. Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asari

3. Фозилов Э. Шарқнинг машхур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971; Абдуллаев И. Абу Мансур Абдулмалик Ас-Саолибий. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992; Жабборов Х. Буюк тилшунослар. – Тошкент: Насаф, 2003; Ҳасанов Ҳ. Махмуд Кошғарий. – Тошкент: Уздавнашр, 1963

4. Воҳидов Э. Рухимиз эҳтиёжи // Саодат, 1989, 3-сон

5. SH.Mirziyoyev. O'zbek tili davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali nutqi. Toshkent “Xalq so'zi”, 2019- yil 21- oktabr

6. DAVLAT TILIDA ISH YURITISH AMALIYOTI; Usmonov S.-O'quv qo'llanma-Toshkent-O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti-2008

7. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O'quv-uslubiy qo'llanma. “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2019, 52-bet

8. O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANILISHI fanidan o'quv uslubiy majmua; N.Saydirahimova, D.Lutfullayeva-Toshkent -2021

9. ILM SARCHASHMALARI ilmiy jurnali/ DAVLAT TILI – MILLAT VA DAVLAT TAYANCHI; Primov A., -Urganch-2020.

¹³ ILM SARCHASHMALARI ilmiy jurnali/ DAVLAT TILI – MILLAT VA DAVLAT TAYANCHI; Primov A., -Urganch-2020.

¹⁴ SH.Mirziyoyev. O'zbek tili davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali nutqi. Toshkent “Xalq so'zi”, 2019- yil 21- oktabr

10. O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM/O'ZBEK TILI DAVLAT TILI SIFATIDA-Qobilova S.S.

11. https://mininnovation.uz/uploads/mininno/tanlov/tur_31/Filologiya_31_tur.pdf

Internet saytlari:

1. lex.uz

2. <http://www.amerikaovozi.com>

3. <http://taqvim.uz>